

TASIMO jamoat fondi faoliyati bo'yicha MA'LUMOTNOMA

Hisobot davri: 2025-yil 1-yanvar – 2025-yil 31-dekabr.

“TASIMO” ta'lim, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish respublika jamoat fondi 2025-yil 25-fevral kuni Adliya organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan (guvohnoma №19364). Fond Toshkent shahrida faoliyat yuritib, o'z ustaviga muvofiq respublika va xalqaro miqyosda ta'lim, ilm-fan va madaniyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqda.

Hisobot yilida Fond o'z faoliyatini shakllantirish, tashkiliy-huquqiy asoslarni mustahkamlash hamda dastlabki yirik loyihalarni amalga oshirish borasida unumli ish olib bordi.

Fond rahbari etib **Navruz Islamov** tayinlangan bo'lib, u ijrochi direktor vazifasini ham bajaradi. Fond boshqaruvida Vasiylik kengashi, Fond boshqaruvi a'zolari hamda Taftish komissiyasi faoliyat yuritadi. Boshqaruv organlari tarkibi ta'lim va media sohasida katta tajribaga ega mutaxassislardan shakllantirilgan bo'lib, bu Fond faoliyatining ochiqqligi, shaffofligi va professional boshqaruvini ta'minlashga xizmat qildi.

Hisobot davrida Fondda jami 3 nafar xodim jamoatchilik asosida faoliyat yuritdi. Mavjud kadrlar Fondning tashkiliy va moliyaviy ishlarini samarali olib borishni ta'minladi. Xodimlarning aksariyati ta'lim muassasalari bilan bog'liq bo'lib, bu Fond faoliyatini amaliy jihatdan kuchaytirishga xizmat qildi.

Hisobot davrida Fondning moliyaviy tushumlari quyidagilarni tashkil etdi:

- Bosh tashkilotdan tushgan mablag'lar: 187 500 000 so'm
- Boshqa manbalardan tushumlar: 2 000 so'm
- Jami tushum: 187 502 000 so'm.

Hisobot davrida amalga oshirilgan jami xarajatlar 138 086 622 so'mni tashkil etdi. Xarajatlarning asosiy qismi quyidagi yo'nalishlarga to'g'ri keldi:

- O'tkazilgan tadbirlar uchun: 137 811 000 so'm (jami xarajatlarning qariyb 99 foizi)
- Internet, aloqa va bank xizmatlari: 275 622 so'm.

Hisobot davri oxirida Fond hisob varaqlaridagi qoldiq mablag' 49 415 378 so'mni tashkil etdi. Bu joriy yil loyihalarini moliyalashtirish uchun muayyan moliyaviy zaxiradir.

Hisobot davrida “TASIMO” jamoat fondi Nizomda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Xalqaro Nordi Universiteti tomonidan ta'lim, ilm-fan va intellektual salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan qator nufuzli va keng qamrovli tadbirlarni tashkil etishda ko'maklashdi.

"TasIMO–2025" II Xalqaro matematika olimpiadasi

— 3–11-sinf o'quvchilari o'rtasida yuqori saviyada tashkil etildi.

Olimpiadada nafaqat respublikadan, 48 xorijiy mamlakatdan 850 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 21 ta davlatning 242 nafar xorijiy o'quvchisi final bosqichida qatnashdi.

G'oliblarga 11 ta oltin, 14 ta kumush va 21 ta bronza medali, shuningdek pul mukofotlari tantanali topshirildi. Mazkur olimpiada O'zbekistonning xalqaro ta'lim maydonidagi nufuzini oshirishga, iqtidorli yoshlarni aniqlash va rag'batlantirishga xizmat qildi.

TasIMO telegram kanali orqali barcha sinf o'quvchilari uchun doimiy qiziqarli topshiriqlar, misol va masalalar, tayanch nazariy ma'lumotlar muntazam e'lon qilib borildi.

Ayni paytda 2026-yil 14–15-mart, 11–12-aprel va 16–18-may kunlari o'tkazilishi rejalashtirilgan TasIMO–2026 olimpiadasining 1-, 2- va 3-bosqichlariga puxta tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Hisobot davrida Fond asosan ta'lim muassasalari va sohaga aloqador vazirlik va tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qoyish bo'yicha ishlar olib bormoqda. Ushbu hamkorliklar Fondning kelgusi yillardagi keng ko'lamli loyihalarini amalga oshirish uchun muhim institutsional asos yaratish rejalashtirilgan.

Fond o'z faoliyatini quyidagi ustaviy **maqsad va vazifalar** asosida olib bordi:

— ta'lim, ilm-fan va madaniyat orqali iqtidorli, ijodkor va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

— ilmiy va ijtimoiy tadbirlar orqali O'zbekiston ta'lim tizimiga ilg'or tajribalarni joriy etish;

— yoshlarning ilmiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ularni xalqaro miqyosda tanitish;

— yetuk bilim egalari iqtidorini jamiyat taraqqiyoti yo'lida safarbar etish.

Ustuvor yo'nalishlar sifatida xalqaro va mahalliy fan olimpiadalarini tashkil etish, STEAM yo'nalishlarini rivojlantirish, yoshlarni ilmga yo'naltirish va ularga homiylik mexanizmlarini kengaytirish belgilandi.

"TASIMO" jamoat fondining 2025-yildagi faoliyati quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- tashkiliy-huquqiy jihatdan shakllanish bosqichi muvaffaqiyatli yakunlandi;
- moliyaviy mablag'lar asosan bevosita tasischi tomonidan o'tkazilgan tadbirlar va ijtimoiy loyihalarga yo'naltirildi;
- Universitet tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan o'quvchilar va o'qituvchilarni qamrab olgan keng ko'lamli olimpiadalar orqali ta'lim sifatiga katta ta'sir ko'rsatildi;

Hisobot davrida "TASIMO" jamoat fondi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni izchil amalga oshirib, yosh avlodga ishonch va rag'bat, jamiyat kelajagiga ezgu sarmoya tamoyili asosida kelgusi yillarda faoliyat ko'lamini kengaytirish uchun mustahkam tashkiliy va moliyaviy asos yaratdi.

Ijrochi direktor



N.Islamov